

**BXSRNING TASHQI ALOQALARIGA OID TARIXIY MANBALAR VA ULARDAN
TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Mazkur maqolada BXSR tashqi aloqalari mavzusini o'qitishda Buxoro milliy matbuoti hisoblangan "Buxoro axbori" gazetasining materiallaridan foydalanishning amaliy ahamiyati yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Tayanch so'zlar: diplomatik jarayonlar, o'zaro vakillar almashish, Amudaryo flotiyasi, xalqaro paritet komissiyasi, konsullarning kengashlari, aeroplan, ipak shirkati.

В данной статье излагаются мысли по поводу практического значения использования материалов газеты «Бухоро ахбори», которая является национальной прессой Бухары, для преподавания темы отношений БХСР.

Ключевые слова: дипломатические процессы, обмен представителями, Амударьинская флотилия, международная паритетная комиссия, консульские советы, аэроплан, шелковая компания.

This article presents thoughts on the practical significance of using the materials of the "Bukhoro Akhbori" newspaper, which is the national press of Bukhara, for teaching the topic of relations between the Bukhara People's Soviet Republic.

Key words: diplomatic processes, exchange of representatives, Amu Darya flotilla, international parity commission, consular councils, airplane, silk company.

O'zbek davlatchiligi tarixi muhim bosqich hisoblangan Buxoro xalq sovet respublikasi davri (1920-1924 yillar) haqida fikr yuritilar ekan, xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro savdo - sotiq aloqalari va boshqa yo'nalishlarda munosabatlar olib borilganligi muhim jarayondir. Mazkur diplomatik jarayonlarni o'rganish va uni o'quv mashg'ulotlarida joriy etish uchun muhim tarixiy manba - davriy matbuot materiallari boy manbaviy asos bo'la oladi.

1920-1923 yillarda chop etilgan "Buxoro axbori" gazetada bosilgan ko'p sonli xabar va maqolalarda Buxoro Respublikasining RSFSR, Turkiston ASSR, XXSR, Sharq mamlakatlaridan Eron, Afg'oniston kabi davlatlar bilan birga G'arbning Germaniya, Fransiya, Latviya, Chexoslovakiya kabi davlatlari bilan ham savdo-sotiq aloqalariga kirishilganligi bayon qilinadi. Qayd etilgan yillarda (asosan 1920-1922 yillarda) xorij bilan diplomatik va elchilik munosabatlari o'rnatish, o'zaro vakillar almashish, turli mamlakatlarda Buxoro vakolatxonalarini ochish jarayonlari kechgan.

BXSR e'lon qilinganidan so'ng, mustaqil sub'yekt sifatida xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy va diplomatik aloqalarga teng huquqlilik asosida kirishish hamda jahon davlatlari orasida o'zining mavqei va o'rni ega bo'lish yo'lida amaliy qadamlar qo'ydi. "Buxoro axbori" gazetasida chop etilgan BXSR tashqi aloqalari bilan bog'liq xabar va maqolalar ustida fikr yuritib, aytish mumkinki, 1920-1922 yillarda faol diplomatik va siyosiy munosabatlar yo'lga qo'yilganligidan voqif bo'linadi. Gazetalarda respublikaning dastlabki yillarida qo'shni RSFSR, XXSR, Turkiston ASSR bilan o'zaro shartnomalar imzolash, diplomatik vakillar almashish jarayoni boshlab yuborilganligi xabar beriladi. "BXSR tomonidan Xiva (XXSR)g'a Mirbobo Muhsin o'g'li va Fatxullo Komil vakil bo'lib ketdilar... Rusiyag'a muvaqqat namoyonda bo'lib, Muhiddin Mansurov, Najib Husainov, Mirzo Bahrom Ahmadqul jo'nab ketdi... Turkiston ASSR (Toshkent)g'a Mirmuhsin Fozilov elchi qilib tayinlandi. 1922 yilda esa Akmalov va Abduvohidovlar elchi bo'lishdi... Qirg'iziston Jumhuriyati (Qozog'iston ASSR) poytaxti O'rinsburg (Orenburg)g'a BXSHJ konsuli yuborilg'ondur... Astraxan viloyatig'a BXSHJ fuqarolari

manfaatini himoya qilmak uchun konsul o'rtoq Abdulla Iskandar yuborildi...", [1]- kabi ma'lumotlar "Buxoro axbori" gazetasida keltiriladi. Yuqoridagi gazeta ma'lumotlari BXSР hukumatining qo'shni respublikalar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish yo'lidagi faol urinishlari ro'y berganligini isbotlaydi. Respublikalar o'rtasida istiqbolga mo'ljallangan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish maqsadida ikki yoqlama shartnomalar tuzilgan, ularning to'liq matnlari esa gazetaga chop etib borilgan.

Ta'lim jaryoni va ilmiy tadqiqotlar uchun muhim rasmiy hujjatlardan biri – 1921 yil 25 sentyabrda tuzilgan RSFSR, BXSР va XXSR o'rtasidagi Amudaryo flotiyasi haqidagi bitim bo'lib, unda Rossiya qarashli Amudaryo flotiyasini BXSР va XXSR ixtiyoriga berish masalasi ko'rilgan. RSFSR Tashqi ishlar xalq komissarligining Turkistondagi vakili M.Vereshchagin (RSFSR), Ezro Xaxamov, Muhamedjon Devlikamov (BXSР), Fayzirahmon Vaisov (XXSR) tomonidan imzolangan va 9 moddadan iborat bitimda Amudaryo flotiliyasi kemalarini taqsimlash uchun xalqaro paritet komissiyasi tuzilib (komissiya raisi qilib BXSР Iqtisodiy nozirligi vakili tayinlangan), u Chorjo'y shahrida faoliyat ko'rsatishi tasdiqlangan. [2]

XXSRning rasmiy vakillari RSFSR bilan imzolangan shartnomalardan keyin Toshkent va Buxoro orqali Xorazmga qaytayotganda -1920 yil oktyabr oyining boshlarida BXSРning hukumat rahbarlari bilan birinchi marta rasmiy uchrashuv o'tkazganlar. Xorazm xalq sovet respublikasi hay'ati Eski Buxoro shahriga kelgach, BXSР Nozirlar Sho'rosi raisi, xorijiya (tashqi ishlar) noziri Fayzulla Xo'jayev ular bilan uchrashadi. Hay'at raisi Boboovun Salimovning sayohatnomasiga suyanib, Polvonniyoz Yusupovning keyinchalik o'z xotiralarida yozishicha, xorazmliklar delegatsiyasi Buxoroning Sitorai Moxi Xosa saroyida 1920 yil 6-8 oktyabrda o'tkazilgan Butunbuxoro xalq vakillarining birinchi qurultoyida qatnashishadi. Qurultoyda XXSR hukumati raisi P.Yusupov tomonidan mustaqil davlat-Buxoro xalq sovet respublika tuzilganligi munosabati bilan yuborilgan tabrik telegrammasi o'qib eshittiriladi. Shunday qilib, Butunbuxoro xalq vakillarining birinchi qurultoyida RSFSR vakillaridan tashqari azaliy qo'shni bo'lgan Xorazm xalq sovet respublika vakillari ham ishtirok etishgan. Xullas, ikki mustaqil davlat: XXSR bilan BXSР o'rtasidagi diplomatik aloqalarga 1920 yil oktyabr oyida asos solindi.[3]

Yana bir rasmiy hujjatlardan biri 1921 yilning 13 noyabrida XXSR bilan BXSР o'rtasida tuzilgan 15 moddadan iborat shartnoma matni ham "Buxoro axbori" gazetasida chop etilgan.[4] Mazkur matn ikki respublika o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlili uchun muhim manba bo'la oladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, quyida gazeta sahifasidan aynan olingan matnni to'liq tarzda berishni lozim topdik. Shuningdek, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalarining o'zaro aloqalari bilan bog'liq habarlar ham gazeta sahifalaridan topildi va joriy alifboga o'girildi hamda ilk bora ilmiy muomalaga kiritildi. Bu materiallar kelgusida diplomatiya tarixi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, shuningdek, mazkur mavzu doirasida o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi tarix o'qituvchilari uchun qo'shimcha manba bo'ladi degan umiddamiz.

"Buxoro axbori", 70-son, 1922 yil 11 fevral.

Buxoro Sho'rolar Jumhuriyati bilan Xorazm Sho'rolar Jumhuriyati orasida bog'langan muhohada

1-modda. Necha yillardan buyon xonlar va amirlar qo'l ostida ezilib kelgan Xorazm va Buxoro mamlakatlari o'z inqilobchilari Rusiya mamlakatida boshlangan ijtimoiy inqilobning ta'siri orqasida sho'ro usulida qurilgan jumhuriy bir hukumat tuzib, atrofdagilar bilan do'stlik va totuvlikda yashamoqni chin ko'ngillaridan istaganlari sababli, Buxoro va Xorazm Sho'rolar Jumhuriyati o'z o'rtalarida do'stlikni yasamoqlarini har birlari umid qilib, har ikki jumhuriyat birlarining xorijiy va dohiliy istiqlolini tasdiq etadurlar.

Buxoro va Xiva mehnatkashlari bundan burungi asirlik va istibdoddan qutilganliklarini ko'zda tutib, Buxoro va Xorazm qurultoylarida bo'lg'on qarorg'a ko'ra, har ikki jumhuriyat o'z mamlakatlariга mundan so'ngra Buxoro amirligiga "B.Sh. J.", Xiva xonligiga "X. Sh. J." deb nom berganliklari uchun ushbu otlar bilan atalmoq tegish ko'riladur.

2-modda. Burungi Buxoro amirlari bilan Xiva xonlari orasida bo'lg'on har turli muhim nomalarni har ikki jumhuriyat butkul e'tibordan soqit deb sanaylar.

3-modda. X.Sh.J.da yashagan B.Sh.J. tobe'larning xususiy mulk va narsalari X.Sh.J. tarafidan qo'riqlanadi yoxud teskarisi.

B.Sh.J. va X.Sh.J. tobelari o'rtalarida chiqqan da'vo va janjallar har ikki jumhuriyat qonunlariga muvofiq, konsullarning kengashlari bilan hal etiladi.

4-modda. X.Sh.J. bilan B.Sh.J.ning o'z oralaridagi davlat va mamlakat chegaralari burundaligicha qoladur.

5-modda. X.Sh.J. bilan B.Sh.J. ning o'rtalaridagi chegaralarni chizmoq va nishon qo'ymoq kerak bo'lg'onda, har ikki jumhuriyat milliy va iqtisodiy alomatlariga rioya etmaklari shart. Ikki tarafdin barobar hay'atga topshiriladi.

Qo'shimcha: Agarda, chegara ko'l, daryo va ariqdan kelib qolgan choqda, shuning o'rtasidan sanalur. Chegarada bo'lg'on ko'l, daryo va ariqlarda baliqchilik va kemachilik qilmoqda har ikki taraf bir xil yutuqqa ega bo'lib, har ikki tarafdin barobar tayin etilgan bir hay'at mazkur huquqni belgilaydi. Hay'atni o'zi esa, har ikki jumhuriyat istagan choqda chaqirilg'usidur.

6-modda. X.Sh.J. va B.Sh.J. qonunlariga muvofiq, har ikki jumhuriyatning mehnatkash va dehqonlariga har ikki jumhuriyatda ham siyosiy huquq berilur.

Teskarichilar bo'lsa, ularni tegishli jumhuriyatga topshirmoqni o'zlariga tegish deb bilsinlar.

7-modda. Agarda X.Sh.J.ning bir urug'i yoki bir tobe'si yoki B.Sh.J.ning bir urug'i yoki bir tobe'si har ikki jumhuriyatdan birining tobe'si bo'lmoqni istagan choqda, har ikki tarafdin ham butun dunyo kambag'allari orasig'a sochilg'on adolat shiori va qonuniga muvofiq kichik va mayda millatlar huquqini qo'riqlamoqqa har ikki jumhuriyat burchlidur.

8-modda. Xorazm tobe'lari Buxoro mamlakatida va Buxoro tobe'lari Xorazm mamlakatida madaniyat va hurriyat huquqida teng va barobar bo'lib, qaysi mamlakatda o'ltirg'on bo'lsalar, shul mamlakatning qonun va bo'yuqlariga bo'yin egarlar.

9-modda. Xorazm tobe'si Buxoro mamlakatida va Buxoro tobe'si Xorazm mamlakatida vafot etsa, qolgan mol va mulki, o'z jumhuriyatining qonuniga muvofiq, hal etilmagi uchun tegishli konsullarga topshiriladiki, har ikki jumhuriyat o'z bo'yinlarig'a oladurlar.

10-modda. Ushbu shartnomaning bir va oltinchi moddalariga muvofiq, har ikki jumhuriyat mamlakatlarida hurriyat va inqiloblarini mudofaa, xorijiy va dohiliy istiqloillarini muhofaza etmak maqsadlarini birinchi darajada ko'z oldida tutib lozim topadurkim, har ikki tarafning yoki Rusiya va yoki boshqa sho'rolar hukumatiga qarshilik ko'rsatmak uchun qurulg'on har bir hukumat, tashkilot va jamiyat odamlariga o'z mamlakatlari tuprog'ida yo'l qo'ymasliklari lozim bo'lg'onidek, ul maqsad bilan qo'shin yig'moqlariga ham ruxsat bermasdan, unday odamlarni o'z mamlakatlaridan haydamoqni har ikki jumhuriyat o'z bo'yinlarig'a oladurlar.

11-modda. Agarda Buxoro jumhuriyati Amudaryodan yangi ariq va kanallar qazmoqchi bo'lsa, har ikki jumhuriyat fuqaro va dehqonlarining manfaatini ko'zda tutib, har ikki jumhuriyatdan vakillar belgilanib, ish qilish kerakdur.

12-modda. Har ikki jumhuriyat bir-birlarining sanoat va iqtisod jihatidan taraqqiy ettirmoq ishlarini yaxshi yo'lg'a qo'ymoqni tegish ko'rganliklari uchun, mundan boshqa ahdnoma bog'lag'aylar.

13-modda. B.Sh.J. bilan X.Sh.J. bir-birlariga vakil yuborurlar.

14-modda. Ushbu shartnomaning har ikki tarafdin tasdiq qilinmog'i lozimdur.

15-modda. Ushbu shartnoma o'zbek shevasida ikki nusxa yozilib, qo'l qo'yilib, tamg'alangandan so'ng, birtadan nusxasi X.Sh.J. va B.Sh.J. da saqlang'usidur.

Imzo:

Hoji Mirbobo Mirmuhsin o'g'li-BXSHJdan;

Nazir Sholikor o'g'li -XXSHJdan.

"Buxoro axbori", 31-son, 1921 yil 13 aprel.

Xiva hay'ati Buxoroda

Turkistondan Xiva jumhuriyatining ikkinchi firqa qurultoyig'a ketib turg'on Xiva hay'ati 5 aprelda Eski Buxoroga keldi. Eski Buxoro vokzalida askarlar, hukumat kishilari musiqa ila qarshi oldilar. Hay'atning boshlig'i o'rtoq (Gubnyor?) bo'lib, yana 3 kishi bor. Bular bir marra miting qilib, yana nozirlar sho'rosi va Markaziy inqilob qo'mitasida majlislarda bo'lib, turli hukumat kishilari tomonidan so'zlar tingladilar. Hay'at 4 kun turib, 9 aprelda kech soat 4 dagi poyezd ila Xivaga ketdilar.

"Buxoro axbori", 91-son, 1922 yil 20 iyul.**Xiva bilan savdo**

Nozirlar sho'rosi Xiva Jumhuriyati bilan savdo shartnomasi qilishg'a qaror berdi. Xabarlariga qaraganda, shartnomaning loyihasi tartib etilgan hamda yaqin zamonda tasdiq uchun tegishli o'ring'a topshirilg'usidur.

"Buxoro axbori", 111-son, 1922 yil 19 noyabr.**Xiva Jumhuriyatidan vakil**

Xiva Jumhuriyatidan Buxoro Jumhuriyatiga tayin qiling'on yangi vakil o'rtoq Fayzi Rahmon o'g'li Buxoroga keldi.

Shu vaqtga Buxoroda bo'lg'on Xiva jumhuriyati vakili qaytadan Xivaga chaqirilg'on.

"Buxoro axbori", 170-son, 1923 yil 15 may.**Xiva vakiliga qizil yulduz nishoni berildi**

Markaziy ijroiya qo'mitaning 5 mayda chiqarg'on qarorig'a binoan, Xorazm Jumhuriyatining Buxoro vakiliga qizil yulduz nishoni berildi.

Buxoro axbori, 166-son. 1923 yil 5 may**Havoda uchish ishlari**

Xalq nozirlar sho'rosi noziri F.Xo'ja Maskavdaligida Buxoro, Xiva, Turkiston jumhuriyatlari bilan havo yo'li masalasida shartnoma tuzgan. Aeroplanlarning yo'nalishi: Buxoro-Dushanbe-Xiva-Toshkent-Oлмаota bo'ladi. Bu ishga mas'ullar Rusiya sho'rolar jumhuriyati va paxta qo'mitasi.

Mehnat sho'rosida 16 aprelda Buxoro tomonidan 50 000 so'm pay ajratish masalasi ko'rilgan va Maskavga xabar yuborilgan.

Buxoro axbori, 175-son. 1923 yil 19 iyun**To'rtta havo kemasi**

"Ixtiyoriy havo floti"ga Buxoro 50 000 so'm pay bilan qatnashdi. Birinchi navbatda Toshkent-Oлмаota, Buxoro-Xiva, Buxoro-Dushanbe yo'nalishlari uchun "Yunkers" (Germaniya)dan 4 ta tayyora sotib olindi. 2 tasi 1 avgustda Buxoroga keladi. Bu tayyoralar 85 ot kuchi bilan 160 km\soat tezlikda uchadi. 6 o'rindan iborat bo'lib, 32 pud yuk oladi. Buxoro-Xiva 2 soat 15 daqiqa, odam boshi 50 so'mdan. Buxoro-Dushanbe 2 soat 20 daqiqa.

Xalq tashabbusi bilan to'planayotgan pullardan yana aeroplan sotib olmak zarur. Mehnat sho'rosi va Buxoro savdoganlari uyushmasi tashabbusi bilan "Buxoro havo floti do'stlari jamiyati" ham ochildi. 9 iyunda tashkilot byurosi tuzildi, unga: rais – Mirzo Muhiddin Mansurov, a'zolar – Hoji Mirzaboy, Usto Nur, Jo'ra Karvon, hukumatdan M.Saidjonov bor.

"Buxoro havo floti do'stlari jamiyati"ning maqsadi- yana 4 ta havo kemasi sotib olish uchun oqcha to'plamoq (bu ish uchun 140 000 so'm oltin kerak). Birinchi yo'li – ionalar yig'ish, ikkinchi yo'li – aksiya (pay)lar tarqatish, hech bo'lmaganda odamlarni 1 so'mlik aksiyasi bo'lsun.

Buxoro axbori, 205-son. 1923 yil 23 sentyabr**Havo yo'llari ochmoqqa hozirlik**

Havo yo'llari ochmoqqa hozirlik munosabati bilan 3 kishilik komissiya tuzilgan, bu komissiya 5 kun ichida Buxoro-Xiva, Buxoro-Sharqiy Buxoro o'rtasida havo yo'llari o'tkazmak ishi yuzasidan smeta tuzib, iqtisod sho'rosiga topshirmog'i kerak.

Ozod Buxoro, 43-son. 1924 yil 24 fevral.**Ipak shirkati haqida**

Bundan bir necha vaqt ilgari savdo va sanoat nazorati, 1-shirkat hamda rus-Buxoro shirkati ishtiroki bilan pullik ipak shirkati tuzmakka qaror berilgan edi. Hozirda savdo va sanoat nazoratining hay'ati Turkiston ipak shirkati Turkiston, Buxoro va Xiva jumhuriyatlarida ish ko'rgani uchun Buxoroda alohida ipak shirkati tuzmakni muvofiq topmadi. Shuning bilan barobar savdo sho'basiga Buxoro ipakchilarni ipak qurti urug'i va boshqa narsalar bilan ta'min qilmak haqida Turkiston ipak shirkati bilan so'ylashmakka taklif qilindi. [5]

Xulosa qilib aytganda, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashqi siyosat sohasida bosib o'tgan yo'li o'sha davr uchun ham, bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaranganda ham mashaqqatli yo'l bo'ldi. Buxoro atigi 4-5 yil ichida dunyoviy islohotlar joriy qilinayotgan demokratik davlatga

- 26 aylana boshladi. Afsuski, bu jarayonlar sovet rejimi tomonidan sun'iy ravishda to'xtatib qo'yildi va nisbatan mustaqil bo'lgan bu davlatning mavjudligiga ham barham berildi. 1924 yil oxirida BXSRning tugatilishi bilan mintaqada davlatchilik ilk bor shakllangan tarixiy makonlardan biri – uch ming yillik davlatchilik tarixiga ega ko'hna Buxoroning mustaqilligi tugatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buxoro axbori. 39-son. 1921 yil 7 iyun; 41-son. 30 iyun; 135-son. 1923 yil 28 fevral.
2. Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. Birinchi jild (1900-1939). –T.: "Fan". 2024. –B.414.
3. Polvonniyoz Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi (xotiralar). –B.305-307.
4. Buxoro axbori. 70-son. 1922 yil 11 fevral.
5. Hayitov Sh., Rahmonov K. Buxoro xalq sovet respublikasi va Sharq mamlakatlari. – Buxoro, 2004. –B.70-72.